

Siddiqova Iroda Boxodir qizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

[siddiqovairodab](mailto:siddiqovairodabaxodirovna@gmail.com)

axodirovna@gmail.com

“YO‘QOTILGAN AVLOD” KONTEKSTIDA AYOLLARNING MA’NAVIY VA IJTIMOIIY IZLANISHLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asr boshlarida yuzaga kelgan “Yo‘qotilgan avlod” adabiy oqimining asosiy xususiyatlari, unda ayollar obrazining o‘rni hamda ularning ma’naviy va ijtimoiy izlanishlari tahlil qilinadi. Ernest Heminguey va Uilyam Folkner asarlarida ayollarning yangi jamiyat sharoitida erkinlikka intilishi, qadriyatlar inqirozi fonida o‘zligini topish jarayoni, shuningdek, ijtimoiy tenglik uchun kurashish masalalari yoritiladi. Tadqiqot davomida ayollar obrazi urushdan keyingi jamiyatdagi yangilanish jarayonlari bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: yo‘qotilgan avlod, ayol obrazi, Heminguey, Folkner, ma’naviy izlanish, ijtimoiy ro‘l, erk va erkinlik.

Siddiqova Iroda Boxodir’s daughter

Doctoral student of Namangan state university

siddiqovairodabaxodirovna@gmail.com

SPIRITUAL AND SOCIAL QUESTS OF WOMEN IN THE CONTEXT OF “THE LOST GENERATION”

Abstract. This article examines the main features of the literary movement “The Lost Generation” that emerged in the early 20th century, with a particular focus on the role of women and their spiritual and social pursuits. In the works of Ernest Hemingway and William Faulkner, women are portrayed as striving for freedom in a new social environment, searching for self-identity amid a crisis of values, and

fighting for social equality. The study highlights how female characters reflect the processes of renewal and transformation in post-war society.

Keywords: Lost Generation, female image, Hemingway, Faulkner, spiritual quest, social role, freedom and independence.

Сиддикова Ирода Боходир кизи

Докторант Наманганского государственного университета

siddiqovairodabaxodirovna@gmail.com

ДУХОВНЫЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ ИСКАНИЯ ЖЕНЩИН В КОНТЕКСТЕ «ПОТЕРЯННОГО ПОКОЛЕНИЯ»

Аннотация. В данной статье рассматриваются основные особенности литературного течения «Потерянное поколение», возникшего в начале XX века, с особым вниманием к роли женщин и их духовным и социальным исканиям. В произведениях Эрнеста Хемингуэя и Уильяма Фолкнера женщины изображаются стремящимися к свободе в новых общественных условиях, ищущими самоидентификацию на фоне кризиса ценностей, а также борющимися за социальное равенство. В исследовании подчеркивается, что женские образы отражают процессы обновления и трансформации в послевоенном обществе.

Ключевые слова: потерянное поколение, женский образ, Хемингуэй, Фолкнер, духовные поиски, социальная роль, свобода и независимость.

Kirish. XX asr boshlarida Birinchi jahon urushining og‘ir oqibatlari nafaqat siyosiy va iqtisodiy sohada, balki insoniyatning ruhiy hayotida ham keskin inqirozlarni keltirib chiqardi. Ayniqsa, urushdan qaytgan askarlar o‘z qadriyatlarini yo‘qotgan, hayotiy maqsadlarini anglay olmay qolgan bir avlod sifatida adabiyot tarixiga “Yo‘qotilgan avlod” nomi bilan kirgan. Bu adabiy oqimning asosiy vakillari

– Ernest Heminguey, F. S. Fitsjerald, Uilyam Folkner kabi yozuvchilar insonning ma'naviy iztiroblarini, hayotdagi beqarorlikni va qadriyatlarning yemirilishini o'z asarlarida aks ettirdilar.

Adabiyotlar tahlili

Ilmiy manbalarda “Yo‘qotilgan avlod” tushunchasiga turlicha ta’rif beriladi. Heminguey romanlaridagi Brett Eshli va Folkner asarlaridagi Kaddi Kompson obrazlari turli olimlar tomonidan erkinlik ramzi yoki fojeiy iztirob timsoli sifatida talqin qilingan. Masalan, Z. Qosimova bu obrazlarni “ayollarning XX asrdagi yangi ijtimoiy mavqei ifodasi” deb baholaydi. N. Abduvohidova esa Heminguey qahramonlari orqali ayolning “hayot falsafasi va erkinlik ramzi” yoritilganini ta’kidlaydi. Rus adabiyotshunosligida esa Folknerdagi ayol obrazi jamiyatning axloqiy qadriyatlardan uzoqlashishini ko‘rsatuvchi falsafiy timsol sifatida tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda quyidagi usullar qo‘llanildi: Komparativ tahlil – bu metod asosida Heminguey va Folkner asarlaridagi ayol obrazlari taqqoslab o‘rganildi; Falsafiy-estetik yondashuv metodi orqali ayol syujeti ma'naviy inqiroz va ijtimoiy yangilanish nuqtayi nazaridan talqin qilindi; Shuningdek, qahramonlarning ruhiy iztiroblari, erkinlik izlanishi va jamiyat bilan to‘qnashuvlari adabiy-psixologik tahlil vositasida ochib berildi.

Tahlil va natijalar

Mazkur oqim doirasida ayollar obraziga alohida e’tibor qaratiladi. Chunki bu davrda ayollar jamiyatdagi an’anaviy cheklovlardan chiqib, yangi ijtimoiy mavqe, mustaqillik va erkinlik sari intila boshladilar. Ularning o‘zligini topish jarayoni

yozuvchilar ijodida turlicha talqin etildi va XX asr adabiyotida ayol qiyofasini yangicha badiiy talqin qilish imkonini berdi.

Urushdan keyingi jamiyat va ayolning yangi qiyofasi. Urush insoniyatning asosiy tayanch qadriyatlarini yemirdi: an'ana, din, axloqiy me'yorlar beqaror bo'lib qoldi. Shunday sharoitda ayollar ham jamiyatdagi yangi imkoniyatlarni izlay boshladilar. Hemingueyning "Quyosh baribir chiqaveradi" (The sun also rises) romanidagi Brett Eshli obrazi bunga yorqin misoldir. Brett jamiyatdagi an'anaviy ayollik me'yorlarini inkor etib, erkaklar bilan teng bo'lish, o'z hayotini mustaqil qurish istagida tasvirlangan.

Bu jarayon o'z zamonasi uchun inqilobiy edi, chunki XX asr boshidagi G'arb jamiyatida ayollar hali ham ko'proq oilaviy doira bilan chegaralangan edi. "Yo'qotilgan avlod" yozuvchilari bu stereotiplarni buzib, ayolning yangi qiyofasini yaratdilar.

Ma'naviy izlanishlar va o'zlikni anglash jarayoni. Ayollar obrazi "Yo'qotilgan avlod" kontekstida nafaqat ijtimoiy, balki chuqur ma'naviy qidiruvlar orqali ham namoyon bo'ladi. Ular jamiyatning beqaror qadriyatlari orasida o'z hayotining mazmunini topishga intildilar.

Folknerning "Shovqin va g'azab" (The Sound and the Fury) asarida Kaddi Kompson obrazi orqali ayollarning ichki iztiroblari, jamiyat bilan to'qnashuvi va o'z shaxsiyatini anglash jarayoni yoritiladi. Kaddi o'z hayotini erkin tanlashga intilsada, jamiyatning qattiq hukmlari va oilaviy bosim tufayli fojeaga yuz tutadi. Bu orqali Folkner ayollar izlanishlarining murakkab va ko'p qirrali ekanini ko'rsatadi.

Ayollar izlanishlarida muhabbat, mustaqillik, shaxsiy qarashlar va ijtimoiy tenglik kabi qadriyatlar markaziy o'rinda turdi. Bularning barchasi yozuvchilarning estetik qarashlari orqali badiiy obrazlarda mujassam bo'ldi.

Ayollarning ijtimoiy roli va tenglikka intilish. Urushdan keyingi davr ayollarning ijtimoiy hayotda faolroq ishtirok etishiga yo‘l ochdi. Ular nafaqat oilaviy doirada, balki ijtimoiy-siyosiy maydonda ham o‘z o‘rnini izlay boshladilar.

“Yo‘qotilgan avlod” adabiyotida ayollar obrazi jamiyatdagi bu yangilanishni ifodalab berdi. Brett Eshli kabi qahramonlar erkaklar bilan bir qatorda mustaqil qaror qabul qila olishlari, jamiyatda faol pozitsiya egallashlari bilan o‘z davrining yangicha qiyofasini yaratdilar. Shu bilan birga, bu obrazlar hamisha ham ijobiy talqin qilinmaydi – yozuvchilar ko‘pincha ayollarning izlanishlarini fojeiy yakunlar bilan bog‘lash orqali davrning murakkab ijtimoiy jarayonlariga badiiy guvohlik berdilar.

Xulosa. “Yo‘qotilgan avlod” adabiyotida ayollar obrazi urushdan keyingi jamiyatdagi yangilanish jarayonlarini ifodalovchi muhim badiiy vosita sifatida gavdalanadi. Ular o‘z erkinligi, mustaqil hayoti va ijtimoiy tenglik uchun intilishlari orqali avlodning umumiy ma’naviy iztiroblarini yanada chuqurroq yoritadi. Heminguey va Folkner kabi yozuvchilarning ijodida ayollarning ma’naviy va ijtimoiy qidiruvlari XX asr adabiyotining dolzarb mavzularidan biriga aylandi. Bu esa ayollar qiyofasini yangicha talqin etish, ularni faqat oilaviy doiradagi timsol sifatida emas, balki keng ijtimoiy hayotning faol ishtirokchisi sifatida tasvirlash imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hemingway, E. The Sun Also Rises. New York: Scribner, 1926.
2. Hemingway, E. A Farewell to Arms. New York: Scribner, 1929.
3. Faulkner, W. The Sound and the Fury. New York: Random House, 1929.
4. Faulkner, W. As I Lay Dying. New York: Jonathan Cape & Harrison Smith, 1930.
5. Anderson, G. The Lost Generation and Its Women Characters. London: Routledge, 1992.

6. Donaldson, S. William Faulkner and the Role of Women in His Fiction. Oxford: Oxford University Press, 2001.

7. Abduvohidova, N. Zamonaviy adabiyot nazariyasi. Toshkent: Fan, 2015.

8. Zokirov, Sh. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent: Universitet, 2018.

9. Davron, X. XX asr adabiyoti va uning yoʻnalishlari. Toshkent: Oʻqituvchi, 2001.

10. Saidov, A. Amerika adabiyotida modernizm oqimlari. Toshkent: Akademnashr, 2017.